



UDK: 811.512.133'373.47

*Xayrulla TOSHQUVVATOV,*

*Tayanch doktorant, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*E-mail: xayrullatoshquvvatov@gmail.com, ORCID ID: 0009-0003-7067-9135*

*PhD X.Bakirova taqrizi asosida*

#### O'ZBEK BADIY MATNLARIDA "HAYRAT" FE'LLARI: SEMANTIK VA PRAGMATIK TAHLIL

Аннотация

Ushbu maqola o'zbek badiiy matnlarida „hayrat“ fe'llarining semantik va pragmatik xususiyatlarini Tohir Malikning „Shaytanat“ romani misolida tahlil qilishga bag'ishlangan. Hayrat fe'llari subyektning kutilmagan hodisa yoki voqealarga nisbatan ruhiy va kognitiv reaksiyasini ifodalovchi muhim birliklar hisoblanadi. Tadqiqot materiali sifatida „Shaytanat“ romani matnidan olingan misollar asosida hayrat fe'llarining semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari mazkur fe'llar qahramon psixologiyasini ochish, syujet dinamikasini kuchaytirish va badiiy ta'sirchanlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Tadqiqot o'zbek tilidagi emotsional leksikani o'rganish doirasidagi ilmiy qarashlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** fe'l semantikasi, hayrat, emotsional leksika, pragmatika, badiiy matn, ekspressivlik.

#### ГЛАГОЛЫ “УДИВЛЕНИЯ” В УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу семантических и прагматических особенностей глаголов „удивления“ в узбекских художественных текстах на примере романа «Шайтанат». Глаголы удивления рассматриваются как важные языковые единицы, выражающие психологическую и когнитивную реакцию субъекта на неожиданные события и явления. В качестве материала исследования были проанализированы примеры из текста романа «Шайтанат», на основе которых выявлены семантические и прагматические особенности глаголов удивления. Результаты анализа показали, что данные глаголы играют решающую роль в раскрытии психологии персонажей, усилении динамики сюжета и повышении художественной выразительности текста. Исследование способствует расширению научных представлений об изучении эмоциональной лексики узбекского языка.

**Ключевые слова:** семантика глагола, удивление, эмоциональная лексика, прагматика, художественный текст, экспрессивность.

#### VERBS OF “SURPRISE” IN UZBEK LITERARY TEXTS: SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS

Annotation

This article is devoted to the analysis of the semantic and pragmatic features of verbs of „surprise“ in Uzbek literary texts, based on the example of the novel Shaytanat. Verbs of surprise are considered important linguistic units expressing the subject's psychological and cognitive reaction to unexpected events or situations. The study analyzes examples taken from the text of the novel “Shaytanat” in order to identify the semantic and pragmatic characteristics of verbs of surprise. The results of the analysis demonstrate that these verbs play a crucial role in revealing the psychology of characters, intensifying plot dynamics, and enhancing the artistic expressiveness of the text. The research contributes to expanding scholarly perspectives on the study of emotional vocabulary in the Uzbek language.

**Keywords:** verb semantics, surprise, emotional vocabulary, pragmatics, literary text, expressiveness.

**Kirish.** Bugungi kunda tilshunoslikda inson tafakkuri va his-tuyg'ularini ifodalashning lingvistik vositalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada emotsional leksikani, xususan, hayrat fe'llarini tizimli tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zamonaviy lingvistik paradigmalar, jumladan, kognitiv va pragmatik yondashuvlar til vositalarini faqat ma'lumotni yetkazish vositasi sifatida emas, balki insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy muhitini aks ettiruvchi murakkab fenomen sifatida talqin etadi. Xususan, hissiy holatlarni ifodalovchi leksik birliklar til va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etishi, shuningdek, kontekstga qarab semantik va pragmatik jihatdan o'zgarishi mumkin. Hayrat fe'llari nafaqat subyektning kutilmagan hodisa yoki voqealarga bo'lgan reaksiyasini, balki uning ruhiy holati, tafakkuri va hatto keyingi xatti-harakatlarini ham ifodalaydi. Badiiy matnda esa bunday fe'llar qahramon xarakterini ochish, syujet dinamikasini kuchaytirish va badiiy ta'sirchanlikni oshirish vazifasini bajaradi. Ushbu maqolaning

asosiy maqsadi o'zbek badiiy matnlarida hayrat fe'llarining semantik turlarini aniqlash va ularning pragmatik funksiyalarini Tohir Malikning „Shaytanat“ romani misolida tahlil qilishdan iborat.

O'zbek tilshunosligida fe'l semantikasi va emotsional leksika masalalari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Emotsiya bu inson ruhiy kechinmalari va ichki holatlarining til orqali namoyon bo'lishidir [9]. Emotiv so'zlar atamasi esa muayyan hissiy holatlar yoki emotsional jarayonlarni ifodalovchi so'zlarga nisbatan qo'llanadi [1]. Emotsional leksika so'zlovchi yoki badiiy asar qahramonining ichki kechinmalari hamda his-tuyg'ularini ifodalashga xizmat qiluvchi so'z va iboralar majmuasidir [10].

Sh.Rahmatullayev o'zining asarlarida leksik birliklarning semantik tasnifiga alohida e'tibor qaratgan hamda hissiy-baholovchi leksikaning o'zbek tilida tutgan o'rni va ifoda xususiyatlarini ko'rsatib bergan. Olimning ta'kidlashicha, „fe'l leksemalar semantik-grammatik belgi va xususiyatlariga

boy bo'lib, bularning ayrimlari fe'l leksemaning o'zi bilan, ko'pchiligi esa turli tashqi vositalar bilan ifodalanadi" [8; 159]. Ushbu qarash fe'llarning semantik imkoniyatlarini, xususan, emotsional holatlarni ifodalashdagi rolini ochib berishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

N.Axmedovanning "Emosional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida" nomli tadqiqoti esa qiyosiy aspektida emotsional leksikaning ikki tilda ifodalanishini o'rganib, pragmatik funksiyalar masalasiga alohida e'tibor qaratgan [2]. Tadqiqot natijalari hissiy holatlarni ifodalashda universal va milliy-madaniy jihatlar mavjudligini ko'rsatadi. Ingliz tilida ham hayratlanishni ifodalovchi fe'llarning qo'llanish chastotasi va morfologik xususiyatlari ingliz tili korpusidan (COCA) foydalanilgan holda tadqiq qilingan. X.Toshquvvatovning ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlari ingliz tilidagi hayratga oid fe'llarning semantik va pragmatik xususiyatlarini ochib berishga hissa qo'shgan [11].

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida holat fe'llarining leksik-semantik guruhlari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi ishlarda holat fe'llari semantikasining o'ziga xos tomonlari, ularning badiiy matndagi ekspressiv xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, badiiy asarlar matnidagi personajlarning turli xil emotsiya va kechinmalari emotsional buyoqdor gaplar orqali tasvirlanadi [7]. Bunday ifodada fe'l gapning markaziy komponenti sifatida muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan mazkur maqola hayrat fe'llarining semantik va pragmatik xususiyatlarini badiiy matn asosida tahlil qilish orqali bu yo'nalishdagi mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

**Material va metodlar.** Tadqiqot materiali sifatida Tohir Malikning "Shaytanat" romani tanlab olingan. Tanlovning asosiy mezonini badiiy matnda hayrat fe'llarining yuqori chastotada qo'llanishi va turli semantik turlarining ifodalanganligidir.

Tadqiqotda tavsifiy metoddan – hayrat fe'llarining leksik-semantik xususiyatlarini tavsiflash uchun hamda kontekstual tahlil metodidan – fe'llarning badiiy matndagi pragmatik funksiyalarini ochish uchun foydalanilgan.

**Natijalar.** O'zbek badiiy matnlarida hayrat fe'llari nafaqat emotsional holatni ifodalash, balki qahramon ruhiy kechinmalarini chuqurlashtirish, syujet dinamikasini kuchaytirish va tasvirning badiiy ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tohir Malikning "Shaytanat" asaridan olingan quyidagi misollar hayrat fe'llarining turli semantik va pragmatik funksiyalarini yaqqol ko'rsatadi.

Avvalo, "esi og'ib qolmoq" va "dong qotmoq" kabi fe'llar kuchli, hatto ekstremal darajadagi hayratni ifodalaydi. Masalan:

"Zelixon unga yaqinlashdi. Ko'zlariga ishonmadi - Jamshid! O'lgan odamni, yana murdasi yoqib yuborilgan odamning ovqat yeb o'tirishini ko'rib, esi og'ib qoldi, deb bo'lmas. Ha, boshqa bir odam hayratdan dong qotishi mumkin, badaniga yengil titroq yugurishi ham mumkindir" [4; 124].

Bu yerda hayrat oddiy ajablanish emas, balki psixologik zarba darajasiga yetgan holat sifatida tasvirlangan. Matnda muqobil variant sifatida "dong qotishi mumkin" deyilishi hayrat intensivligining gradatsiyasini ko'rsatadi. Ya'ni, muallif turli darajadagi emotsional reaksiyalarni qarama-qarshi qo'yib, voqeaning favqulodda ekanini yanada kuchaytiradi.

"Hatto otlarni ko'rganda ko'z oldiga faqat qazi keluvchi Kesakpolvon ham bu go'zallik oldida lol qoldi" [6; 233].

"Lol qolmoq" fe'li nutqiy falajlanishni bildiradi. Bu fe'l orqali qahramonning hayratdan so'zsiz qolishi, ya'ni estetik ta'sir ostida nutq imkoniyatining vaqtincha yo'qolishi

ifodalanadi. Bu holat ijobiy hayrat kategoriyasiga kiradi va go'zallik bilan bog'liq emotsional reaksiyani aks ettiradi.

Yana bir misolda nutqiy falajlanish va kognitiv chalkashlikning birlashgan holati kuzatiladi:

"Uning hovliqib aytgan gapini eshitib opoqisi tamom gangib qoldi. Bir oz nima qilarini bilmay talmovsirab turdi-da, so'ng: "Voy, aylanay sendan", deb ichkariga boshladi" [4; 8].

"Gangib qolmoq" fe'li esa psixologik chalkashuvni bildiradi. Bu yerda hayrat tafakkur jarayonining vaqtincha izdan chiqishi bilan bog'liq. Qahramon vaziyatni darhol anglay olmaydi, natijada nutq va harakatda ikkilanish yuzaga keladi. Bu turdagi hayrat kognitiv va emotsional komponentlarning uyg'unlashuvi sifatida namoyon bo'ladi.

Xuddi shu fe'l boshqa kontekstda ham qo'llanadi:

"- Assomoykum, senga million so'm beraman, - dedi jiddiy tikilib. Bu gapni eshitgan Muhiddin ota nima deyishni bilmay, gangib qoldi. Dev aka Jalil bilan ko'rishayotib ham shunday dedi. Ammo barchani hayratda qoldirib Asadbekka bunday demadi" [5; 155].

Bu misolda hayrat ijtimoiy-kontekstual xarakterga ega: kutilmagan taklif qahramonni muvozanatdan chiqaradi. Demak, "gangib qolmoq" fe'li nafaqat individual psixologik holatni, balki kommunikativ vaziyatdagi nomuvofiqlikni ham ifodalaydi.

"- Voy...- Manzura eriga ajablanib qaradi. - Ammasi yo'q-ku?" [3; 15].

Bu gapda "ajablanmoq" fe'li nisbatan past intensivlikdagi hayratni bildiradi. U ko'proq kognitiv darajadagi reaksiyani ifodalaydi, ya'ni qahramon vaziyatni tushunishga harakat qilmoqda. Bu fe'l odatda kundalik nutqda uchraydigan, neytral hayratni ifodalovchi birlik hisoblanadi.

"- Qoyilman, topdingiz! - dedi Hamdam sovuqqina jilmayib. U sir boy bermay turgan Sayfiga qarab taajjublandi: „Pixini yorgan jinoyatchi ham bunaqangi bez bo'lmas. Rangi ham o'zgaraydi-ya... Kim bu o'zi? Shunchalik ustami? Meni laqillatmoqchimi yo shoir mashina nomerini adashtirganmi? Bu kelmaganmi?.." [4; 73].

"Taajjublanmoq" esa stilistik jihatdan biroz kitobiyroq bo'lib, chuqurroq va ongli ajablanishni bildiradi. Ushbu fe'l orqali qahramon ichki monologga o'tadi, savollar beradi va vaziyatni tahlil qiladi. Demak, bu fe'l reflektiv hayratni ifodalashga xizmat qiladi.

"Odamlar hayron bo'lib so'rashdi: „Quchoqlab o'pganing nimayu urganing nima?" [4; 119].

"Hayron bo'lmoq" fe'li umumiy hayratni bildiradi va ko'pincha jamoaviy reaksiyani ifodalashda qo'llanadi. Bu yerda hayrat kommunikativ akt bilan bog'lanib, savol berish orqali ifodalanadi. Ya'ni, hayrat nutqiy faoliyatni rag'batlantiradi.

"Zaynabni ko'rgach hayratdan lol qotgan Mardonaning ahvolini tasvir etmoqqa qalam o'jiz. Ha, avval hayratlandi, so'ng bu hayrat o'rmini qo'rquv seli egalladi. Hatto a'zoyi-badanidan jon chiqib ketganday bo'ldi" [5; 177].

Bu parchada bir nechta hayrat fe'llari ketma-ket qo'llanib, emotsional intensivlikning bosqichma-bosqich oshishi tasvirlangan. Avval "hayratlanmoq" (o'rta daraja), so'ng "lol qolmoq" (yuqori daraja) ishlatiladi. Bu esa qahramonning emotsional holati dinamik ravishda kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Keyinchalik bu hayrat qo'rquvga aylanishi esa emotsional transformatsiyani ifodalaydi.

Shunday qilib, "Shaytanat" asaridan olingan misollar hayrat fe'llarining nafaqat semantik, balki stilistik va pragmatik jihatdan ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Muallif turli intensivlikdagi fe'llardan mohirona foydalanib, qahramonlarning ichki kechinmalarini jonli va ta'sirchan tarzda ifodalaydi.

**Muhokama.** Tahlil natijalari asosida bir qator muhim xulosalar chiqarish mumkin. Jumladan, hissiy holatlar leksikasi ichida intensivlik darajasi asosiy farqlovchi belgi hisoblanadi. “Shaytanat” romanidagi hayrat fe’llari tahlili intensivlikning faqat ikkilik (“past – yuqori”) ko’rinishida emas, balki ko’p bosqichli gradatsiya asosida ifodalanishini ko’rsatdi. Badiiy matndagi fe’llarning polisemantik xususiyatga ega ekanligi haqidagi nazariy qarashlar amaliyot misollar orqali isbotlandi. Masalan, “gangib qolmoq” fe’li bir kontekstda sof psixologik holatni, boshqasida esa ijtimoiy-kommunikativ nomuvofiqlikni ifodalamoqda.

Badiiy matnda hissiy holatlarning bilvosita ifodalanishi keng qo’llaniladi. Ushbu tadqiqot bu fikrni tasdiqlab, hayrat fe’llarining nutqiy faoliyat (savol berish, sukut saqalash, ikkilanish) orqali namoyon bo’lishini tasdiqladi.

Ushbu tadqiqot faqat bitta asar materiali asosida olib borilgani sababli, kelgusida turli janr va davrlarga mansub badiiy asarlarni, shuningdek, publitsistik va so’zlashuv nutqini qiyyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq bo’ladi.

**Xulosa.** “Shaytanat” romanidagi hayrat fe’llari murakkab semantik tuzilishga ega bo’lib, ularning badiiy matndagi pragmatik funksiyalari xilma-xildir. Bu fe’llar orqali muallif qahramonlarning ichki dunyosi, psixologik holati va kommunikativ xatti-harakatlarini ifodalaydi. Tahlil shuni ko’rsatadiki, Tohir Malik turli intensivlik va ifoda usuliga ega bo’lgan hayrat fe’llaridan mahorat bilan foydalanib, asar badiiy ta’sirchanligini oshirgan. Tadqiqot natijalari o’zbek badiiy nutqining xususiyatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdurazoqov, B. Ingliz va o’zbek tillarida emotsiya konseptlarining verballashuvi: Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2025.
2. Axmedova, N. Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o’zbek tillari misolida. O’zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari. – 2025. <http://conferences.tsuull.uz/index.php/conferences/article/view/772>.
3. Malik, T. Shaytanat. 1-kitob. – Toshkent: Sharq, 1994.
4. Malik, T. Shaytanat. 2-kitob. – Toshkent: Sharq, 1995.
5. Malik, T. Shaytanat. 3-kitob. – Toshkent: Sharq, 1997.
6. Malik, T. Shaytanat. 4-kitob. – Toshkent: Sharq, 2001.
7. Narzullaeva, D. Badiiy diskursda insonning ruhiy-emotsional holatini tasvirlashning lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va o’zbek tillari misolida): Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024.
8. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 159 b.
9. Rahmonov, U. Ingliz tilida emotsiyani ifodalovchi leksikaning leksikografik va kontekstual talqini: filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2022.
10. Raxmonova, A. Badiiy personajlar hissiyotlarini ifodalashda stilistik vositalar (ingliz va o’zbek badiiy nasri materialida): filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024.
11. Toshkuvvatov, Kh. A Corpus-Based Analysis of “Surprise” Verbs in English: Frequency, Register, and Semantic Variation. Tillarni o’qitish va madaniyatlararo aloqalarda innovatsiyalarni qo’llashning ahamiyati: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – 2025.